



## METHODS OF ORGANIZING ELEMENTARY SCHOOL "MOTHER TONGUE AND READING LITERACY" LESSONS BASED ON A NEW APPROACH

**Mavlonbek A. Doniyorov**

*Lecturer*

*Jizzakh State Pedagogical University*

*Jizzakh, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** reading literacy, text, communicative approach, constructive process.

**Received:** 25.09.22

**Accepted:** 27.09.22

**Published:** 29.09.22

**Abstract:** In the article, comments on the formation of the skills of understanding, understanding and reacting to the text, not limited to memorizing the text and repeating poems, are described in the lessons of the mother tongue and reading literacy. It is shown on the basis of examples that the lessons organized on the basis of memorization and repetition do not give anything to the students, if the role of primary education is understood correctly, the importance of the lessons taught by the teacher will increase.

## BOSHLANG'ICH SINF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARINI YANGICHA YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI

**Mavlonbek A. Doniyorov**

*O'qituvchi*

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti*

*Jizzax, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** o'qish savodxonligi, matn, kommunikativ yondashuv, konstruktiv jarayon.

**Annotatsiya:** Maqlada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar matnni yodlab olish, she'rlarni takrorlash bilan cheklanmasdan, matnni tushunish, anglash, munosabat bildira olish ko'nigmalarini shakllantirish borasida mulohazalar bayon qilinadi. Yodakilik va takrorlash asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarga hech narza bermasligi, boshlang'ich ta'limning o'rni to'g'ri anglansa, o'qituvchi tomonidan o'rgatilayotgan darslarning ahamiyati oshishi namunalar asosida ko'rsatib beriladi

**ТЕКСТ НАУЧНОЙ РАБОТЫ НА ТЕМУ «МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ В  
НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ УРОКОВ «РОДНОЙ ЯЗЫК И ГРАМОТНОСТЬ ЧТЕНИЯ»  
НА ОСНОВЕ НОВОГО ПОДХОДА»**

**Мавлонбек А. Донияров**

*преподаватель*

*Джиззакский государственный педагогический университет*

*Джиззак, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** грамотность чтения, текст, коммуникативный подход, конструктивный процесс.

**Аннотация:** В статье описываются комментарии по формированию навыков понимания, осмысливания и реагирования на текст, не ограничиваясь заучиванием текста и повторением стихотворений, на уроках родного языка и грамотности чтения. На основе примеров показано, что уроки, организованные на основе запоминания и повторения, ничего не дают учащимся, при правильном понимании роли начального обучения значение уроков, проводимых учителем, будет возрастать.

---

**KIRISH**

Kichik o‘quvchilar ma’naviyatini sog‘lomlashtirishda o‘qish darslarining o‘rni muhim ahamiyatga molik hisoblansa-da, afsuski uzoq yillar mobaynida bu amalaiyot noto‘g‘ri bajarilib kelindi. O‘qish darslarida o‘quvchilar matnni yodlab olish, she’rlarni takrorlash bilan cheklandilar. Yodakilik va takrorlash asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarga hech narza bermasligi bugungu kundagi xato va kamchiiklarimiz misolida ham ko‘rinib turibdi. Boshlang‘ich ta’limning o‘rni to‘g‘ri anglansa, o‘qituvchi tomonidan o‘qish kitobidagi asarlarni to‘g‘ri idrok etishga yo‘naltirilgan o‘quvchi mustaqil ishlashga, uqib o‘qishga, o‘zgalarning fikrlarini ilg‘ashga, o‘zi va boshqalarning tuyg‘ular olamini kuzatishga, o‘zgani tuyishga o‘rgana boradi. Olamni, Odamni va O‘zligini kashf qiladi. O‘z ichki “men”ning shakllanishida o‘zi bevosita ishtirok etadi.

Undan tashqari kuzatishlar asnosida ma’lum bo‘ldiki, boshlang‘ich sinflar “O‘qish kitobi” darsliklarining barchasida keragidan ortiq material to‘plangani bilan, muhim talablarga yetarlicha javob bera olmasdi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insoniy sifatlarni shakllantirishda bolalarning kuchi, aqli va imkoniyatlaridan unumli foydalanilmagan. Darsliklarda o‘rganish uchun taqdim etilgan o‘quv materiallarining katta qismi mantiqsiz, jo‘n, hayotiy haqiqatdan uzoq manbalar bilan to‘ldirilgan edi.

Ma’lumki, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida ma’nan sog‘lom qilib tarbiyalashda, shaxsni shakllantirishda badiiy adabiyotning o‘rni beqiyos. Lekin badiiy asardagi o‘quvchi

shaxsiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jihatlarni, matnda aks etgan hayotiy va badiiy haqiqatlarni ilg'ash, ularning ko'ngilni tozalashga xizmat qiladiganlarini topib, o'z tabiatiga singdirish shakllanayotgan shaxsda osonlik bilan kechadigan jarayon emas.

### ASOSIY QISM

«Ona tili va o'qish svodxonligi» darsligi matnlarning bolalarbopligi, qiziqlarliligi, integratsyaviyligi va hayot bilan bog'langanligi bilan oldingi draslardan ahamiyatli hisoblanadi.

Agar har bir o'qituvchi kichik o'quvchilarni matn ustida uzlucksiz ravishda namunadagidek ishlata bilsa, bolalar ham bunga asta-sekinlik bilan o'rganib boradilar va ularda badiiy asarlar bilan ishslash borasida istalgan ko'nikma hosil bo'ladi. Natijada bola shaxsida fikr kishisi shakllanadi. Fikr kishisi hech qachon o'zgalarga ko'r-ko'rona ergashmaydi, munosabat bildirish kerak bo'lganda jim turmaydi. O'qituvchi bolalarda shunday sifatlarni shakllantirishga da'vat etilgan shaxsdir. Buning uchun, avval, uning o'zi shunday sifatlarni egallagan bo'lishi lozim. O'qituvchi o'zida yo'q narsani o'quvchisiga berolmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy doidalarda mavjud darsliklarning eskirganligi, yangi avlod darsliklarini yaratish lozimligi borasida ko'rsatma beriladi. Darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo'qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo'lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta'sir etayotganligi, davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotganligi ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, foydalanimayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o'quv qo'llanmalarini qo'shimcha yoki muqobil o'quv materiallari sifatida qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish fursati kelganligi ham ta'kidlab o'tiladi.

2021-yil sentabrdan birinchi va ikkinchi sinflariga qo'llanilishi boshlangan Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi ushbu talabni bajarish uchun tashlangan qadamdan biri bo'ldi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqeа-hodisalarini kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy

tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o‘qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalgalashga xizmat qiladi.

O‘qish savodxonligini o‘rgatishda kommunikativ yondashuv, ya’ni tilning muloqot vazifasi birlamchi hisoblanib, integrativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, onglilik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e’tiborda bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda tamoyillar belgilangan bo‘lib, 4-tamoyilda o‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish; o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasini oshirish nazarda tutilganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyatda qo‘llay olish qobiliyatidir.


O‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Ushbu nuqtayi nazar o‘quvchilarining o‘qishdan olingan ma’lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko‘proq e’tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e’tibor tushunishni namoyon qilishdan o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O‘qish savodxonligiga o‘rgatishda konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko‘plab o‘qish nazariyalarini aks ettiradi. O‘quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o‘quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o‘quvchi ma’noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv inglizcha «construct» – yaratmoq deyiladi). O‘quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, ma’no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo‘llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o‘quvchiga matnni sharlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo‘lishi mumkin. Bular an’anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko‘rinishdagi yozma shakllarni ham o‘z ichiga oladi.



Odatda o‘quvchi nima sabadan matnga murojaat qiladi? Aslida, o‘qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o‘qishlari bilan bevosita bog‘liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o‘qishni yoki ta’lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etish uchun axborotga ehtiyojmandlikni o‘z ichiga oladi.




Odatda barcha bolalar uchun atrof-olamni bilishga bo‘lgan qiziish hammavaqt ham yuqori darajada bo‘ladi. Ular har bir narsani ushlab ko‘rishni, u haqda ma’lumotga ega bo‘ishni istashadi. Yon-atrof bilan bog‘liq ma’luotlarni egallahsga harakat qilishadi.

Matn (hikoya, ertak, she’r, xabar, ma’lumot) ga bo‘lgan qiziqish ham jajji bolaljonlarning tabiiy qiziqishidan kelib chiqadi. Ular kitobdagagi rasmni, unda aks etgan voqealarni anglashga, bilishga, ma’lumotlarni egallahsga urinishadi. Faqatgina bu jarayon to‘g‘ri tashkillashtirilishi yoki tashkillashtira ololmaslik ishning samaradorligini belgilab berishi mumkin.

Bolaning matnni to‘liq tushunmasligining sabablaridan biri ularda yaratish jarayoni uchun muhim mexanizmlarning kamligi ham bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchlarga “Zumrad va Qimmat” ertagini aytib berayotganda, o‘rmon haqida gapirgan paytda o‘quvchi bu so‘z bilan bog‘liq ma’no umumlashmalarini anglab olish uchun o‘rmon haqida tushuncha mavjud bo‘lishi lozim bo‘ladi. Shu yerda o‘qituvchining mahorati shundan iborat bo‘lishi kerakki, u bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarning tasavvuri bilan ham birdek ishlay olishi lozim. Ya’ni, o‘quvchilarning yosh xusuiyatlaridan kelib chiqqan holda nutqini, talaffuzini, bayon usulini moslashtira olishi lozim.

“Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o‘quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi” deganda ko‘proq o‘quvchining o‘qish strategiyasini nazarda tutmoq muhim. Matn turiga hikoya, ertak, she’r, maqolni kiritsak, shakli kitob, gazeta, jurnal, telefon va boshqa narsalarni hisoblash mumkin. Demak, o‘quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ehtiyojlari, qiziqishlari, o‘rgangan narsalari muhim ahamiyat kasb etib qolaveradi.

Xalqaro tadqiqotlarda matnni tushunish to‘rtta jarayonga asoslanib baholanadi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ma’lumotni topish, to‘g’ridan to‘g’ri xulosalar chiqarish, g‘oyalar va axborotni talqin qilish, uyg‘unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir.



Shunday qilib, tushunish jarayoni bir etap bilan cheklanib qolmasdan, bir necha sathlar bilan ishlash jarayoni hamdir. O‘quvchi matn ichidagi aniq ma’lumotlarni ko‘ra olsagina xulosa chiqara olishi, xulosa natijasida ma’lumotlarni talqin qila olishi va e’tirof etish yoki tanqid qilish hukmini ham o‘zida paydo qilishu mumkin bo‘ladi. Ushbu nazariy qoidani 1-sinf “O‘qish kitobi”dagi “Rostgo‘y bola” matni misolida tahlil qilamiz.

### Rostgo‘y bola

(ertak)

*“Qadim zamonda bir podshoh bo‘lgan ekan. Podshohning farzandi yo‘q ekan. Shuning uchun u doimo xomush bo‘lib yurar ekan. Podshoh vazirning maslahati bilan bolalarga gul*

*urug‘i tarqattiribdi. Kimning gulı chiroyli bo‘lsa, o‘sənə podshoh farzand qilib olmoqchiliginı aytishibdi.*

*Oradan birmuncha vaqt o‘tibdi. Podshoh gul o‘sirganlarni ko‘rish niyatida shahar aylanibdi. Ko‘p bolalar va ular o‘sirgan gullarni ko‘rib o‘taveribdi. Bir ko‘chaga yetganda podshohning ko‘zi gulsiz tuvak ushlab, yig‘lab o‘tirgan bolakayga tushibdi. Bolakayning oldiga borib:*

— Sen o‘sirgan gul qani? — deya so‘rabdi.

*Shunda bolakay gul urug‘i o‘sib chiqmaganligini aytibdi.*

*Podshoh:*

— Men farzandlikka olish niyatida axtargan bola mana shu bo‘ladi, — debdi. Chunki podshoh gul urug‘larini qaynattirgan ekan.

Ushbu ertak-matnda 103 ta so‘z ishlatilgan bo‘lib, 14 ta gapdan iborat. O‘quvchi matnni o‘qib chiqqach, uning tushunish darajasini to‘rtta jarayon bo‘yicha ketma-ketlikda tahlil qilamiz:

1. Diqqatni jamlash va aniq ma’lumotni topish. Matndagi shaxslar va narsalar, harakatlar tushuniladi. Podshohning harakatlari, xohish-istagi, maqsad-rejasi va uni amalga oshirish jarayoni qabul qilinadi.

2. To‘g‘ridan to‘g‘ri xulosa chiqarish. Bo‘lib o‘tgan, sodir bo‘lgan voqeanning hayot haqiqatiga yaqinligi, shunday bo‘lish ehtimoli mavjudligi, harakatlarning o‘rinliligi anglanadi. Podshohning farzand tanlashi uchun juda ko‘p sinov va imtihonlari bo‘ishi mumkin, biroq aynan shu usulni qo‘llaganligining mohiyati aniqlashtiriladi.

3. G‘oyalar va axborotni talqin qilish, uyg‘unlashtirish. Insondagi tuyg‘ular, fazilatlarning qiymati tushuniladi. Podshohning shaxsiy va boshqa qilishi lozim bo‘lgan ishlari salgina chetga surilib, muhim qadriyat ulug‘langanligi tushuniladi.

4. Kontekst va matn elementlarini baholash va tanqid qilish. Voqealar bayonidagi ortiqcha harakatlar, bo‘rttirish, tasvirlash, mubolag‘alar o‘rinli qabul qilinadi. Agar e’tirozli o‘rinlar mavjud bo‘lsa aytildi. Masalan, podshohning bittagina oddiy sinov orqali farzandlikka qabul qilib olishligi, bolaning mavjud kamchiliklari ham bo‘lishligi tanqidga sabab bo‘lishi ham mumkin. Bu anglashlar asosida to‘ldiriladi.

To‘rt bosqichli jarayon o‘quvchining matnni tushunish, qabul qilish, anglash holatini ko‘rsatib beradi. Aslida “tushunish” so‘zi “anglash” so‘zi bilan uyg‘unlashib, matn mazmunini butunlay qabul qilishlik, ongga joylashtira olishlik, keyingi harakatlar jarayonida bu ma’lumotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishlik kabi ma’noni ham anglatadi.

Rostgo‘y bola matni to‘liq tushunilganligining belgisi shu bilan o‘lchanadiki, endi o‘sənə o‘quvchining hayotda hech qachon yolg‘on gapirmasligi, uning tushunganlik darajasi bilan

proporsional bo‘ishi kerak bo‘ladi.

Ushbu matnni tushunishning konstruktiv tomoni shundaki, o‘quvchi bu jarayonning faol qatnashchisi bo‘lib, ma’no yarata olishligi muhim hisoblanadi. Buni oddiyroq izohlasak, hayotda yolg‘on gapirib pushaymon bo‘lgan odam yoki yolg‘onchilik qurboni bo‘lgan odamning ushbu matndan boshqalardan ko‘ra ko‘proq ta’sirlanishining sababi u faol ishtirokchi bo‘la olishligi va oldingi qarashlariga nisbatan ma’no yarata olishligi yordam beradi. Birinchi sinf o‘quvchilari uchun bu holat ancha uzoq bo‘lganligi bois ham bu vazifani uddalash o‘qituvchining zimmasiga tushadi. O‘qituvchi matnni o‘rganishdan oldingi kirish suhbatida bu holatni ifodalab bera olishi mumkin. Ya’ni yolg‘onchilikning yomon oqibatlari haqida, rostgo‘ylikning fazilatlari haqida gapirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## **XULOSA**

Badiiy adabiyotning kuchi shundaki, u tasvirlagan voqealar, harakatlar va oqibatlar o‘quvchilarga haqiqiy hayotni yoritibgina qolmay, tasavvur qilishlari mumkin bo‘lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi. Adabiyot namunalarini tushunish orqali o‘quvchi ongosti uzvlaridagi strukturalarni o‘zgartira oladi. Anglashlar asnosida harakterlar o‘zgaradi, yaxshi fe’l-atvor, olijanob qarashlar shakllanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tiziminin 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida"gi PF-5538-sон Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy doidalar (3-sahifa).
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g’risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sон qarori.
3. Asaqrarova M. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko’nikmalarini rivojlantirish" Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Namangan.-2020. 15-sahifa.
4. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiysi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet. 16-bet.
5. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS

International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019.  
[www.timssandpirls.bc.edu](http://www.timssandpirls.bc.edu)

6. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.
7. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.27-bet.
8. G‘afforova T. va boshq. O‘qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. – T.: Sharq, 2017. – 63-b.